



## SIYDIK PUFAGI LEYKOPLAKIYALARIDA p53 EKSPRESSIYASI

<sup>1</sup>Saxatalieva R.R., <sup>2</sup>Isroilov R.R., <sup>1</sup>Mamataliev A.R.

<sup>1</sup>Andijon davlat tibbiyot instituti,  
<sup>2</sup>Toshkent tibbiyot akademiyasi, O'zbekiston

### ✓ Resюме

*Leykoplakiyaning klinik-morfologik shakllari va rivojlanish davrlari bo'yicha 100ta ayolda - siydik pufagi shilliq pardasi va qoplovchi epiteliysidagi patomorfologik va immunogistokimyoviy o'zgarishlarda p53-ni ekspressiyasini bir-biri bilan solishtirilgan holda o'rganildi.*

*Siydik pufagi leykoplakiyasining I – darajasida disregenerasiyaga uchragan hujayralarda p53 gen supressor ularni yadrosida ham paydo bo'lganligi aniqlandi. Leykoplakiyaning 2-3-davrlarida epiteliyning kuchli metaplaziyasi oqibatida shakli va gistotopografiyasi o'zgarganligi va kuchli disregenerasiyaga uchraganligi sababli ularni yadrolarida p53 oqsilining musbat ekspressiyalanishi sabab bo'ldi.*

*Kalit so'zlari: Leykoplakiya, ekspressiya, patomorfologik, immunogistokimyoviy.*

## ЭКСПРЕССИЯ R53 ПРИ ЛЕЙКОПЛАКИИ МОЧЕВОГО ПУЗЫРЯ

<sup>1</sup>Сахаталиева Р.Р., <sup>2</sup>Исроилов Р.Р., <sup>1</sup>Маматалиев А.Р.

<sup>1</sup>Андижанский государственный медицинский институт,  
<sup>2</sup>Ташкентская медицинская академия, Узбекистан

### ✓ Резюме

*Изучены клинко-морфологические формы и стадии развития лейкоплакии у 100 женщин путем сравнения экспрессии p53 при патоморфологических и иммуногистохимических изменениях слизистой оболочки мочевого пузыря.*

*В I-ой стадии лейкоплакии мочевого пузыря - обнаружены дисрегенерированные клетки с геном p53 в их ядре. Во II и III-стадии заболевания в результате сильной метоплазии эпителия их форма и гистотопография изменилась и подверглась сильной дисрегенерации, что привело к положительной экспрессии белка p53 в их ядрах.*

*Ключевые слова: лейкоплакия, экспрессия, патоморфология, иммуногистохимия.*

## EXPRESSION OF R53 IN LEUKOPLAKIA OF THE URINARY BLADDER

<sup>1</sup>Sakhatalieva R.R., <sup>2</sup>Isroilov R.R., <sup>1</sup>Mamataliev A.R.

<sup>1</sup>Andizhan State Medical Institute,  
<sup>2</sup>Tashkent Medical Academy, Uzbekistan

### ✓ Resume

*Clinical and morphological forms and stages of development of leukoplakia in 100 women were studied by comparing the expression of p53 with pathomorphological and immunohistochemical changes in the bladder mucosa.*

*In the 1st stage of bladder leukoplakia, dysregenerated cells with the p53 gene in their nucleus were found. In stages II and III of the disease, as a result of strong metaplasia of the epithelium, their shape and histotopography changed and underwent strong dysregeneration, which led to a positive expression of the p53 protein in their nuclei.*

*Key words: leukoplakia, expression, pathomorphology, immunohistochemistry.*



### Dolzarbligi

**P**53 oqsil transkriptsiya omili, gen supressor hisoblanib, hujayra stiklini boshqaradi. Xavfli o'smalar hujayralarining 50%-da bu oqsil mutastiyalanadi. p53 surinkali rak oldi kasalliklarda faollashadi, jumladan siydik pufagi surunkali yallig'lanishli, disregenerator va o'sma oldi kasalliklarida faollashib, yuzaga chiqadi.


Siydik pufagi rak oldi jarayonlari va rak kasalligining uchrash darajasi oxirgi paytlarda keskin ko'paymoqda, shuning uchun bu kasalliklarni aniqlashda morfologik usul, jumladan immunogistokimyoviy tekshiruv usulining ahamiyati yuqori darajada baholanadi [1.2.3.4].

### Materiallar va usullar

Material sifatida Farg'ona vodiysida yashovchi, anamnezida surunkali sistit (50,5%), siydik pufagi bo'yni sistiti (27,5,0%), interstisial sistit (12,0%), sistalgiya (10%) bilan kasallangan 100ta ayollardan sistoskopiya usulida olingan siydik pufagi shilliq pardasi biopsiyasi olindi. Kasallar yoshi 20-dan 82 yoshgacha bo'lib, o'rtacha yoshi 41,3 yoshni tashkil qilgan. Leykoplakiyaning klinik-morfologik shakllari va rivojlanish davrlari bo'yicha siydik pufagi shilliq pardasi va qoplovchi epiteliysidagi patomorfologik va immunogistokimyoviy o'zgarishlar bir-biri bilan solishtirilgan holda o'rganildi.

### Natijalar va tahlillar

Nazorat guruh insonlar siydik pufagi shilliq pardasi qoplovchi epiteliysi odatdagiday ko'p qavatli o'zgaruvchan epiteliydan va uning bazal qavatda joylashgan epiteliy hujayralari nisbatan yirik, giperxromli, bazal membranaga tizilib joylashganligi, yadrolarining aksariyati oval va cho'zinchoq shakldaligi aniqlandi. Ko'p qavatli epiteliyning yuza qatlamlarida hujayralar nisbatan siyraklashganligi, yadrolarini ham o'lchamlari kichiklashganligi, ham bo'yalishi ochlashganligi, joylanishi yassilanganligi kuzatildi. Epiteliy hujayralarida p53-oqsil bo'yicha o'tkazilgan immunogistokimyoviy tekshiruv natijalari nazorat guruhida faqat bazal membranada joylashgan nisbatan yosh va bo'linayotgan, ko'payotgan kambial darajadagi ayrim hujayralar ham stitoplazma, boshqalarining yadrosida juda past darajada bu oqsilning ekspressiyalanganligi, boshqa oraliq va yuza qavatlarida hujayralarida ekspressiyalanish yo'qligi kuzatildi (1-rasm). Mikroskopik tekshiruvda nazorat guruhida siydik pufagi qoplovchi epiteliysining bazal qavat hujayralarida p53-gen supressor ayrim hujayralar stitoplazmasida, aksariyat hujayralarning yadrosida joylashganligi kuzatildi.




*Rasm-1a-b. A-siydik pufagi, me'yor, p53-oqsil bazal qavat epiteliy hujayralarini ayrimlarining ham stitoplazma, ham yadrosida ekspressiyalanishi. B - siydik pufagi, leykoplakiyasining I- davri p53-oqsili bazal qavat epiteliy hujayralari yadrolarida kuchli ekspressiyalangan. Bo'yoq: immunogistokimyoviy. Kat: 10x40.*

Siydik pufagi leykoplakiyasining turli davrlarida epiteliy hujayralari proliferativ faolligi oshganligi sababli p53 oqsili ekspressiyalanish darajasi o'rganilganda quyidagi ma'lumotlar aniqlandi. Leykoplakiya rivojlanishining dastlabki davri ko'p qavatli epiteliy qatlamlari soni oshdi, yuza qavatlar epiteliysi yassilanib, hujayralar sitoplazmasida glikogen va prokeratin miqdorining ko'payishi hisobiga pufakchasimon ko'rinishga kirdi. Immunogistokimyoviy tekshirishda siydik pufagi shilliq pardasi ko'p qavatli o'zgaruvchan epiteliysining proliferativ faolligi oshganligi sababli bazal qismida kuchli akantoz rivojlanib, bazal qavat epiteliysi ostidagi birlitiruvchi to'qimali qavatga to'plam-to'plam bo'lib o'sib kirganligi kuzatildi. Immunogistokimyoviy p53 markerlarini aniqlashda leykoplakiyaning I – davrida ko'p qavatli o'zgaruvchan epiteliyning bazal qatlami hujayralarining ko'proq yadro tuzilmalarida

ekspressiyalanganligi aniqlandi (1b-rasm). Sitoplazmada kam, yadroda ko'proq ekspressiyalanish bu gen supressorning tashqi ta'sirotlar natijasida yadro DNK bilan replikastiyalanib, faollashganligidan dalolat beradi.

Siydik pufagi shilliq pardasi qoplovchi epiteliysi leykoplakiyasining II – davri, o'zgaruvchan epiteliy ko'p qavatli yassi epiteliyga metaplaziyalanganligi, hujayralari sitoplazmasi vakuollashganligi aniqlandi. Bazal qavat hujayralari nisbatan yirik, asosan yadrolari yiriklashgan va to'q bo'yalgan va ularda gen supressor p53 ijobiy ekspressiyalanganligi kuzatildi (2a-rasm). Kasallikning ushbu II – davrida immunogistokimyoviy tekshiruv shuni ko'rsatdiki, I – davridan farqli o'laroq, bu davrda bazal qavatda joylashgan 2-3 qator va oraliq qavatlar hujayralarining ayrimlari sitoplazmasida to'q jigar rangli ko'rinishda p53 oqsili ekspressiyalanganligi aniqlandi. Bu leykoplakiyaning II – davrida bazal va oraliq qavatlar epiteliysining proliferativ faolligi oshganligi, p53 oqsil xavfli o'sma jarayoniga qarshi gen supressor faollashganligidan dalolat beradi. Kasallikning bu davrida p53 oqsil epiteliy hujayralarida, shilliq pardaning xususiy plastinkasi biriktiruvchi to'qima hujayralarida ham ekspressiyalanganligi tasdiqlandi.



Rasm-2a-b. A-siydik pufagi, leykoplakiyasi, II- davr, p53-oqsil bazal qavat epiteliy hujayralari yadrolarida kuchli ekspressiyalangan. V - siydik pufagi, leykoplakiyasi, III- davr, p53-oqsil bazal qavat epiteliysi bir nechta qavatida kuchli ekspressiyalangan. Bo'yoq: immunogistokimyoviy. Kat: 10x40.

Siydik pufagi leykoplakiyasining III – davrida siydik pufagi shilliq parda qoplovchi ko'p qavatli o'zgaruvchan epiteliysidagi patomorfologik o'zgarishlarni oldingi davrlaridan farqi, bunda epiteliyning bazal qavati kuchli akantozga uchraganligi, oraliq qavat hujayralari sitoplazmasi gidropik distrofiya oqibatida vakuollashganligi kuzatildi. Bu davrning yana bir o'ziga xos belgisi, epiteliy osti biriktiruvchi to'qimali xususiy plastinkasi tarkibida surunkali yallig'lanish infiltrati, qon tomirlari devori hujayralarining ham proliferatsiyalanganligi, ularda ham p53 gen supressor oqsili musbat darajada ekspressiyalanishi aniqlandi (2b-rasm). Immunogistokimyoviy p53 oqsilini ekspressiyalanish darajasini o'rganish bu davrida p53 oqsili epiteliy hujayralar yadrosida ko'proq ekspressiyalanganligi, sitoplazmasida kam darajada aniqlanishi kuzatildi.

#### Xulosa

Siydik pufagi leykoplakiyasining I – darajasida disregenerasiyaga uchragan hujayralarda p53 gen supressor ularni yadrosida ham paydo bo'lganligi aniqlandi. Leykoplakiyaning 2-3-davrlarida epiteliyning kuchli metaplaziyasi oqibatida shakli va gistotopografiyasi o'zgarganligi va kuchli disregenerastiyaga uchraganligi sababli ularni yadrolarida p53 oqsilining musbat ekspressiyalanishi sabab bo'ldi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ал-Шукри С.Х. и др. «Выбор тактики лечения лейкоплакии мочевого пузыря у женщин с хроническим циститом. // Материалы 1-й научно-практической конференции урологов северо-западного федерального округа. Урологические ведомости. Том V. № 1. 2015. Стр 90-92.
2. Лоран О.Б. и др. Лейкоплакия мочевого пузыря – новый взгляд на проблему // Эффективная фармакотерапия. Урология и Нефрология. – 2008. – № 4 – С. 50-52. 6.
3. Лысенко О.Н. Иммуногистохимические исследования экспрессии рецепторов к стероидным гормонам при гиперпластических процессах в эндометрии / О.Н. Лысенко, М.Х. Ашхаб., Н.В. Стрижова [и др.] // Архив патологии. - 2004. - № 2. - С 7-10.
4. Staack A. Clinical value of vesical leukoplakia and evaluation of the neoplastic risk by mutation analyses of the tumor suppressor gene P53 / A. Staack, H. Schlechte, M. Sachs [et al.] // Int J. Urology. - 2006. - Vol. 13 (8). - P. 1092-1097.

Qabul qilingan sana 09.04.2022